

**SURXONDARYO VILOYATIDA XOTIN-QIZLAR
MAVQEYINING IJTIMOIY JIHATDAN
MUSTAHKAMLANISHI VA UNING DASTLABKI
NATIJALARI**

*Radjabova Saboxat Bobirovna,
Termiz davlat universiteti "Jahon tarixi" kafedrasi katta
o'qituvchisi*

**СОЦИАЛЬНОЕ УКРЕПЛЕНИЕ
ПОЛОЖЕНИЯ ЖЕНЩИН И ДЕВУШЕК
СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ И ЕГО
ПЕРВЫЕ РЕЗУЛЬТАТЫ**

*Раджабова Сабоҳат Бобировна,
Старший преподаватель кафедры всеобщей
истории Термезского государственного университета*
**SOCIAL STRENGTHENING OF THE POSITION
OF WOMEN AND GIRLS IN SURKHANDARYA
REGION AND ITS INITIAL RESULTS** Radjabova

*Sabokhat Bobirovna,
Senior lecturer of the Department of World History of Termiz
State University*

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillikning dastlabki yillarida Surxondaryo viloyatida xotin-qizlarning ijtimoiy, siyosiy jarayonlardagi ishtiroki bayon qilingan.

Kalit so'zlar: jamiat, ijtimoiy-siyosiy, bozor iqtisodiyoti, Qoraqalpog'iston

Аннотация: В данной статье описывается участие женщин в общественно-политических процессах Сурхандарьинской области в первые годы независимости.

Ключевые слова: общество, общественно-политическая, рыночная экономика, Каракалпакстан.

Abstract: This article describes the participation of women in social and political processes in the Surkhandarya region in the first years of independence.

Keywords: society, socio-political, market economy, Karakalpakstan.

KIRISH (INTRODUCTION)

Jamiyatimizda xotin-qizlarga e'tiborning ortib borishi, ayollar manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan huquqiy-me'yoriy hujjatlarning ishlab chiqilishi ijtimoiy hayotimizdagi muhim masalalardan biri sanaladi. Bu esa ayollar muammosining bartaraf qilinishiga hamda ularning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayotdagи faol ishtirokini ta'minlash, jamiyatdagi o'rni va mavqeini oshirish imkoniyatini yuzaga keltirib, deyarli barcha mamlakatlarning ayollar masalasi bo'yicha olib borayotgan siyosatini o'zgartirishiga

olib keldi. Bu borada olib borilayotgan choratadbirlarni muvofiqlashtirish, jamiyatda ayollarning rolini kuchaytirish davlatimizning muhim vazifalaridan biriga aylanib bordi.[1]

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD /
(MATERIALS AND METHODS)**

Mustaqillik yillarida respublikada xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning davlat boshqaruvi va qarorlar qabul qilishdagi o'rnini kuchaytirish, mehnat va turmush sharoitini yaxshilash va har tomonlama qo'llab-quvvatlash uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish

maqsadida qator islohotlar amalga oshirildi [2]. Bu esa ayollarga g‘amxo‘rlik, ularning ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va ma‘naviy manfaatlari davlat tomonidan himoya qilinishida o‘z ifodasini topmoqda. Shuningdek, xotin-qizlar bandligini oshirish, jamiyatda yuzaga keladigan ijtimoiy muammolarning oldini olish, xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini yanada mustahkamlash kabi muhim vazifalarni kuchaytirishni taqozo etmoqda [3].

Ayolning insoniy qadrini joyiga qo‘yish, uni ulug‘lash, so‘zsiz, aql-idrok tantana qilgan, inson oldidagi javobgarligini chuqur tushungan yurtdagina amalga oshirish mumkin. Ayol qadri ijtimoiy hayotda o‘z o‘rnini topmas ekan, ayol jamiyatning erkinlik, to‘kinlik, osoyishtalik mezoniga aylanmas ekan, bu jamiyatda barqarorlik, buniyodkorlik hukmronlik qilishi mumkin emas.[4]

Chunki, ijtimoiy hayot, uning birinchi bo‘g‘ini bo‘lgan oila ayollardan boshlanadi, to‘g‘riroq‘i, u ayol zaminida vujudga keladi, mavjud bo‘ladi, doimiylik kasb etadi. Oila va uning ta’sirida shakllanuvchi insoniy fazilatlar, birinchi galda, onaning oq sutidan, uning chaqaloqqa bo‘lgan mehr-muhabbatidan, beshik tebratib o‘tkazgan bedor tunlaridan boshlanadi. Ayol allasi o‘ziga xos millat madhiyasidir, chunki bunda Vatanni o‘zida jam qilgan onaning orzusi, uning javobgarligi, uning mehri jo‘sh urib turadi. Millat ayolni nechog‘lik ulug‘lasa, uning o‘zi ham shunchalik ulug‘lanadi, har tomonlama yuksalib, kelajagi porloq bo‘ladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Ayollarimizning baxti-xalqimiz, jamiyatimizning ham baxtidir” [5].

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ/DISCussion)

Mamlakatimiz xotin-qizlari iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda xalq xo‘jaligi, ilm-fan, madaniyat va ma‘rifat tizimining barcha sohalarida o‘zlarining halol va fidokorona mehnatlari bilan ishtirot etmoqdalar. O‘zbekiston xotin-qizlar qo‘mitasi mamlakatimiz xotin-qizlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlab, xalqaro ayollar harakati hamda boshqa nufuzli tuzilmalar bilan keng hamkorlik qilib kelmoqda.

1991-yil 27-dekabr kuni O‘zbekiston Xotin-qizlarining birinchi ta’sis Konferensiysi Surxondaryo viloyatining Termiz shahrida bo‘lib o‘tdi [6]. Anjuman Respublikaning barcha

viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasidan saylangan delegatlar ishtirotida bayramona tarzda yakdillikda o‘tkazilib, barcha qonuniy, me’yoriy hujjatlar delegatlarning bildirgan taklif va e’tirozlarini inobatga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi xotin-qizlar qo‘mitasini tashkil etish qarori qabul qilindi [7]. Mazkur qaror muhokamadan o‘tkazilib, qayta ko‘rib chiqlganidan keyin O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan 1991-yil 23-fevral kuni “O‘zbekiston Respublikasi xotin-qizlar qo‘mitasi” tashkil etildi [8].

Surxondaryo viloyatida xotin-qizlar qo‘mitasi tashkil etilganidan so‘ng barcha jarayonlarda bosqichma-bosqich faoliyatini olib bordi. Birinchidan, qo‘mitaning matbuotdagi nazorat organi “Nazokat” gazetasi tashkil etilib, obuna o‘n ming nuxsaga yetkazildi (O‘sha yili viloyatning asosiy gazetasiga olti ming nusxa obuna bo‘lindi). “Nazokat” gazetasining barcha sonlارida xotin-qizlar va ularning ilm-fan, qishloq xo‘jaligi, ta‘lim tizimi, tibbiyot va boshqa sohalardagi faoliyati, shu jumladan, Surxondaryo viloyati xotin-qizlar qo‘mitasining amalga oshirayotgan chora-tadbirlari ham yoritib borildi. Ikkinchidan, yoshlarni va yosh ayollarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash maqsadida viloyatdan yetishib chiqqan taniqli shoira Ra’no Uzoqova mukofoti ta’sis etildi. Viloyat xotin-qizlar qo‘mitasi nizomi me’yoriy hujjatlar asosida tayyorlandi. Uchinchidan, kam ta’minlangan, ko‘p bolali oilalarini, nogiron va kasalmand ayollarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida “Onalar va bolalar uyi” tashkil etilib, viloyatning tajribali tibbiyot xodimlari jalb etilgan holda ularni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish ishlari yo‘lga qo‘yildi [9]. Qo‘mita faoliyatini to‘g‘ri tashkil etish hamda viloyat xotin-qizlarining mavjud muammolarini o‘rganish va ularni hal qilishda Surxondaryo viloyati xotin-qizlar qo‘mitasining birinchi raisi bo‘lgan Bo‘ritosh Aminovaning xizmatlari katta bo‘ldi. Respublika xotin-qizlar qo‘mitasi mamlakatimizda mayjud barcha davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda yuqorida sanab o‘tilgan yo‘nalishlar bo‘yicha faol ish olib bordi.

1995-yil 2-martdagи “O‘zbekiston Respublikasi davlat va ijtimoiy qurilishida xotin-qizlarning rolini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni ayollarning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti

masalalarini hal qilishga, ularning davlat va jamoat boshqaruvidagi ishtirokini oshirishga keng jalb etish uchun keng imkoniyatlar ochib berdi [10]. Mazkur Farmonga binoan Bosh vazir o‘rinbosari lavozimi joriy etilib, uning zimmasiga xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi rolini yanada oshirish bilan bog‘liq masalalar yuklandi. Ushbu qabul qilingan Farmonga binoan viloyatlar, shaharlar va tumanlar hokimliklarida hokimlarning xotin-qizlar ishlari bo‘yicha o‘rinbosarlari lavozimlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesida Qoraqalpog‘iston Jo‘qorg‘i Kengesi Raisi o‘rinbosarining tegishli lavozimi joriy etildi [11].

Ushbu Farmonning uzviy davomi sifatida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 14-martdagi 86-soni “Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar kengashi apparati, respublika, viloyat, shahar va tuman hokimliklarida xotin-qizlar ishlari ishchi organlarining tuzilishi haqida”gi qaroriga asosan viloyatda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish masalalarini hal qilishda xotin-qizlarni keng jalb etish, ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish, oila, onalik va bolalikni ijtimoiy muhofaza etilganligini kuchaytirish, shuningdek, boshqarmalar, birlashmalar, konsernlar, uyushmalar, idoralar-korxonalar, tashkilotlar hududiy boshqaruv organlari va jamoat tashkilotlarining ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini muvofiqlashtirib borishni ta‘minlash maqsadida 1995-yilning 24-martida Surxondaryo viloyati hokimining 101-soni qarori qabul qilindi.

NATIJALAR (RESULTS)

Ushbu qarorga binoan, viloyat, shahar va tuman hokimliklarida xotin-qizlar ishlari bo‘yicha Hokim o‘rinbosari lavozimi joriy qilindi. Viloyat va shaharlarda ikkitadan, tumanlarda esa bittadan jami 21 ta qo‘srimcha hokim o‘rinbosarlari uchun shtat ajratildi. Ushbu Farmonga muvofiq Asiya Odiljonovna Toshmuhammedova Qumqo‘rg‘on tuman hokimi o‘rinbosari va xotin-qizlar qo‘mitasi raisi, Sherabod tumani xotin-qizlar qo‘mitasi raisi etib Gulsum O‘tayeva tayinlandi [12]. Viloyatda xotin-qizlar qo‘mitalari faoliyati takomillashtirilganidan so‘ng, avvalambor, qishloqlarda istiqomat qiluvchi ayollarning manfaatlarini himoya qilish hamda ularga amaliy yordam berishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga

oshirildi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 29-iyuldagagi “Bozor iqtisodiyoti talablarini hisobga olgan holda qishloq yoshlari kasb-hunar ta‘limining yo‘nalishini o‘zgartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi 296-soni qarorining bajarilishini va shu qaror asosida qishloq yoshlari hamda xotin-qizlariga ko‘rsatilayotgan yordam to‘g‘risida 1995-yil 241-soni viloyat hokimining qarori qabul qilindi.

XULOSA (CONCLUSION)

Xulosa qilib aytganda, xotin-qizlar huquqlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish, ayollar bandligini oshirishda respublikada yetarlicha chora-tadbirlar amalga oshirilganligi manbalar asosida yoritib berildi.

Foydalilanilgan manba va adabiyotlar ro‘yxati.

1. Xalq so‘zi. 2018 yil. 8 mart. 1 b. Sh. Mirziyoyevning bayram tabrigi.
2. Surxondaryo viloyat davlat arxiv. 1091-fond, 1-ro‘yxat, 465-yig‘ma jild, 34-varaq.
3. Inoyatova S., Muhitdinova F., Kenjayeva M.. Surxondaryo barchinoylari-Mustaqillik qaldirg‘ochlari.: - T.: 2021. - B. 16.
4. G‘ulomova D.M. O‘zbekiston xotin-qizlari mustaqillik yillarda. Mustaqil O‘zbekiston tarixining dastlabki sahifalari: davriy to‘plam. Sharq. Toshkent. 2000. - B. 137-138.
5. Surxondaryo viloyati hokimiyati joriy arxiv, doimiy fond. M-01-49, 3-ish, 36-b.
6. Radjabova, S. (2023). Ayollarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat siyosati (Birinchi qadamlar). *Zamonaviy fan va tadqiqotlar*, 2 (6), 49-52.
7. Radjabova, S. (2023). Surxondaryo viloyati madaniy hayotdagi ayollarning faoliyati. *Zamonaviy fan va tadqiqotlar*, 2 (6), 53-55.
8. Radjabova, S. (2023). Davlat dasturlarida ayollar salomatligini muhofazalash. *Zamonaviy fan va tadqiqotlar*, 2 (5), 285-289.
9. Habibullo o‘g‘li, R. M. (2023). Surxon vohasi toqchi qavmining an‘anaviy turmush tarzi.
10. Рахмонов, М. (2023). Surxon vohasi toqchi qavmlari hududiy joylashuvining ilmiy tahlili. *История и культура центральной Азии*, 1(1), 341-344.